



(2019-yil 1-may holatiga)

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**Ro'yxatdan
o'tgan
17570**

2019-yilning 1-may holatiga 17570 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (15,7 %) ga o'sgan.

**Faoliyat
ko'rsatayotgan
17123**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2505 ta (17,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17123 tani tashkil etgan.

**Yangi tashkil
etilganlar
1773**

2019-yilning yanvar-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 1773 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 679 taga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar




(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

17570 tani
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




15,7%

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019-yilning 1-may holatiga 17570 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,7 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 22,2 % savdo, 12,1 % sanoatda, 11,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,2 % qurilish, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,8 % axborot va aloqa hamda 28,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (3908 ta) savdo, (2120 ta) sanoat, (2044 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1964 ta) qurilish, (1053 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (827 ta) tashish va saqlash, (332 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (309 ta) axborot va aloqa hamda (5013 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-may holatiga)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17123 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2505 ta (17,1 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Nukus shahri (5378 ta), To'rtko'l (1695 ta), Beruniy (1398 ta), Amudaryo (1281 ta) va Elikqal'a (1083 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shumanay (426 ta), Mo'ynoq (341 ta) hamda Taxtako'pir (304 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 1773 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 679 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish surati, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (644 ta), sanoat (349 ta), qurilish (296 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (145 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa hamda axborot va aloqa (22 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (37 ta) hamda tashish va saqlash (48 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



145

Tashish va saqlash



48

Sanoat



349

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



95

Qurilish



296

Axborot va aloqa



22

Savdo



644

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



37


Boshqa turlar



137

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (500 ta), To'rtko'l (196 ta), Amudaryo (148 ta) va Qo'ng'irot (123 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorao'zak (49 ta), Qonliko'l (48 ta) hamda Taxtakopir (21 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida, birlikda



Korxonalar sonini o'sishi, birlikda

Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 13546 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati




Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

(2019-yil 1-may holatiga)



130 ta



O'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,9 % o'sgan

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

Asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 130 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 42,9 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda






Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 79 tasi qo'shma, 51 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Nukus shahrida 23 ta (jamidagi ulushi 17,7 %), Mo'ynoq tumanida 18 ta (13,8 %) va Taxiatosh tumanida 11 tani (8,5 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xo'jayli va To'rtko'l tumanlarida 3 tadan (2,3%), Chimboy va Ellikqal'a tumanlarida 4 tadan (3,1 %) tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




- Sanoat
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Savdo
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qurilish
- Tashish va saqlash
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 13 tani tashkil etgan.

Qozog'iston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 3 ta, Koreya Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi hamda Britaniyaning Virginiya Orollari - 2 tadan, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi hamda Turkiya Respublikasi - 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatta 5 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 3 tadan faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)



2019-yil 1-may holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13468 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 20,7 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-aprel oylarida 1699 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 887 taga ko'proqdir.



•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng kichik
ulushi

•Nukus shahri
33,5 %

•Chimboy tumani
3,3 %

•To'rtko'l tumani
10,7 %

•Qorao'zak tumani
2,9 %

•Beruniy tumani
8,3 %

•Taxiatosh tumani
2,8 %

•Amudaryo tumani
7,3 %

•Kegeyli tumani
2,7 %

•Ellikqal'a tumani
6,1 %

•Qonliko'l tumani
2,4 %

•Qo'ng'iro't tumani
5,5 %

•Shumanay tumani
2,2 %

•Xo'jayli tumani
4,9 %


•Mo'ynoq tumani
1,8 %

•Nukus tumani
4,2 %









•Taxtako'pir tumani
1,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13468 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3793 ta (28,2 %) – savdo, 2036 ta (15,1 %) - sanoat, 1921 ta (14,3 %) - qurilish, 1903 ta (14,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1025 ta (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 799 ta (5,9 %) - tashish va saqlash, 252 ta (1,9 %) - axborot va aloqa sohasi, 233 ta (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 1506 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 643 ta, sanoat 349 ta, qurilish 295 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 144 ta tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda 48 ta, axborot va aloqa 22 ta hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 21 ta tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (476 ta), To'rtko'l (189 ta), Amudaryo (147 ta) va Qo'ng'irot (119 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Taxtako'pir (20 ta), Qonliko'l (47 ta) hamda Qorao'zak (48 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(2019-yil 1-may holatiga)




Ro'yxatdan o'tgan
Faoliyat ko'rsatayotgan
Yangi tashkil etilgan




Ro'yxatdan o'tgan
Faoliyat ko'rsatayotgan
Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,1 % yoki 225 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,8 % yoki 223 tasi sanoat, 25,8 % yoki 214 tasi savdo, 6,9 % yoki 57 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,0 % yoki 17 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,8 % yoki 15 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 6 tasi qurilish, 0,6 % yoki 5 tasi tashish va saqlash hamda 8,3 % yoki 69 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.**

Tel.:71-230-82-23(24)